XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-015-10-135-K/24 Bekobod tumani

Bekobod tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27- dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Bekobod tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-220/27-01-38/404-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 24-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Bekobod tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **86 354 745,0 ming.so‘m** va xarajatlari **111 403 711 ming.so‘m** hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **25 048 966 ming.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Bekobod tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **487 528 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek Bekobod tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 718 064 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik

yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-ilova**ga muvofiq;

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya etilganini inobatga olib:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq.

tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **11-ilova**ga muvofiq.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.b. E. Imomov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M. Turdimatova), tuman soliq inspeksiyasi (R. Rustamov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Tuman mahalliy budjetidan moliylashtiriladigan budjet tashkilotilari va budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi B. Yulchiyev hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.b. E. Imamov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi DO‘SBEKOV SHUXRAT BEGIMQULOVICH

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bekobod tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Bekobod tumani
	JAMI	**86 354 745**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	9 303 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 700 960
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 207 000
	Aksiz solig‘i jami	10 241 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*10 241 000*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 096 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 302 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 995 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	27 639 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	441 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 883 785
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	381 000

13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	165 000

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

2025-yil uchun Bekobod tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Bekobod tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**111 403 711**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*31 154 283*
	shundan:	
	Mening maktabim	*3 671 407*
2	Madaniyat bo‘limi	*1 329 415*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*5 617 796*
4	Sport bo‘limi	*5 707 272*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 594 644*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 246 584*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2 574 715*
8	Hokimyat	*37 562 593*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*579 975*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*57 750*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*22 231 871*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 823 397*
	Zahira jamg‘armasi	*1 718 064*
9	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*624 746*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*73 773*

	Axborot-kutubxona markazlari	*550 973*
10	*Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)*	*19 972 164*

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Hududlar nomi			**Bekobod tumani**
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	26%
Foyda solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
pivo	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga		100%
Davlat boji	Tuman (shahar)lar budjetiga		0%
Jarima	Tuman (shahar)lar budjetiga		0%
Yig‘imlar	Tuman (shahar)lar budjetiga		0%

3-ilova

Bekobod tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
4-ilova

4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish m’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Ziyoli MFY	0.85	3,632.48	0.85	326.66
2	Ilg‘or MFY	0.95	4,059.83	1.10	422.73
3	Istiqbol MFY	1.00	4,273.50	1.10	422.73
4	Istiqlol MFY	1.05	4,487.18	1.25	480.38
5	Qoraquyli MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
6	Qolgansir MFY	0.80	3,418.80	0.80	307.44
7	Kushtamgali MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
8	Kushchi MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
9	Yoshlik-2 MFY	0.80	3,418.80	0.80	307.44
10	Isfara MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
11	Yoshlik MFY	0.95	4,059.83	0.90	345.87
12	Birdamlik MFY	0.80	3,418.80	0.80	307.44
13	Dexkonobod MFY	0.80	3,418.80	0.80	307.44
14	Dalvarzin MFY	1.00	4,273.50	1.15	441.95
15	Guliston MFY	1.05	4,487.18	1.25	480.38
16	Gulzor MFY	0.90	3,846.15	0.90	345.87
17	Buston MFY	1.05	4,487.18	1.25	480.38
18	Bunyodkor MFY	0.95	4,059.83	1.20	461.16
19	Bogishamol MFY	1.00	4,273.50	1.20	461.16
20	Bobur Mirzo MFY	1.00	4,273.50	1.15	441.95
21	Beshyuz MFY	0.95	4,059.83	1.05	403.52
22	Achamayli MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44

23	Qo‘qoni MFY	0.90	3,846.15	0.90	345.87
24	Dustlik MFY	0.95	4,059.83	1.10	422.73
25	Qo‘rg‘on MFY	0.95	4,059.83	1.10	422.73
26	Farxod MFY	0.95	4,059.83	1.10	422.73
27	Mustaqillik MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
28	Yangi xayot MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44
29	Yangi ovul MFY	0.90	3,846.15	0.85	326.66
30	Mallaboy MFY	0.95	4,059.83	1.10	422.73
31	Yangi bozor MFY	1.00	4,273.50	1.15	441.95
32	Xos MFY	0.95	4,059.83	0.90	345.87
33	Xonobod MFY	0.85	3,632.48	0.85	326.66
34	Xamza MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
35	Uyas MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44
36	Urikzor MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
37	Uzbekobod MFY	1.00	4,273.50	1.20	461.16
38	Uzbekiston MFY	1.00	4,273.50	1.10	422.73
39	Shova MFY	1.00	4,273.50	1.20	461.16
40	Terakzor MFY	0.90	3,846.15	0.90	345.87
41	Turon MFY	0.85	3,632.48	0.85	326.66
42	Nayman MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44
43	Nazarboy MFY	1.00	4,273.50	1.10	422.73
44	Oltin vodiy MFY	1.00	4,273.50	1.10	422.73
45	Parchayuz MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
46	Ok tepa MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87
47	Paxtakor MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44
48	Savrak MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44
49	Saryuz MFY	0.85	3,632.48	0.80	307.44
50	Takachi MFY	1.00	4,273.50	1.20	461.16
51	Pastki Kerayit MFY	0.85	3,632.48	0.90	345.87

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
5-ilova

5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffitsient**	**Mutloq miqdor** *(so‘mda)*
1	Bekobod tumani	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
6-ilova

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari
1	Bekobod tumani	1,05	1,05	1,05	1,05	1,00

6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
7-ilova

7-ilova

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025-yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		Oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	Dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	Gazeta jurnallar va kitob maxsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1	Bekobod tumani	350,00	100,00	100,00	100,00	100,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
8-ilova

8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(Qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Bekobod tumani	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
9-ilova

9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	**Tuman va shaharlarnomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Bekobod tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
10-ilova

10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori

ming.so‘mda

T/r	Tuman va shaharlarnomi	II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i, ming so‘mda					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymat	koeffitsient	2025-yil stavka	2025-yil minimal qiymat	koeffitsient	2025-yil stavka
1	Bekobod tumani	5,50	1,05	5,78	11,00	1,10	12,10

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-015-10-135-K/24 -son qaroriga
11-ilova

11-ilova

2025-yilda Bekobod tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag’ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

№	Hududlar bo‘yicha jami	2025-yil
1	Bekobod tumani	487 528